



POLAND



POLAND

O'ZBEK MUMTOZ SHE'RIYATI LINGVOPOETIKASI

Gafurova Umida Kadirxanovna

University of Business and Science

Katta o'qituvchisi

Namangan, O'zbekiston

umidaqodirxanovna@gmail.com

+99897-2160075

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10730050>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mumtoz asarlarda lingvopoetik tilshunoslikning xususiyatlari, lingvopoetikaning taraqqiyoti, bosqichlari qalamga olingan. Boborahim Mashrab asarlari asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, fonetik, leksik, sintaktik, morfemika.

Abstract. In this article, the characteristics of linguopoetic linguistics, the development and stages of linguopoetics are written in classic works. It is analyzed based on the works of Boborahim Mashrab.

Key words: linguopoetics, phonetics, lexical, syntactic, morphemics.

Абстрактный. В данной статье особенности лингвопоэтического языкознания, развитие и этапы лингвопоэтики описаны в классических произведениях, анализируются на основе произведений Боборахима Машраба.

Ключевые слова: лингвопоэтика, фонетика, лексика, синтаксика, морфемика.

Hozirgi kunda lingvopoetika tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Lingvopoetikaning kelib chiqishi Arastu davrlariga borib taqaladi, uning mashhur "Poetika" asarida poetik san'atlar, she'riy janrlar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, Arastu "Poetika"sining "Til va fikr" bobida nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlab o'tilgan. Ritorikaning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi va she'riyatga ajoyib bir ruh olib kira olishi haqida fikr bildirilgan.

XX asr tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga alohida e'tibor tufayli ritorika va poetika tushunchalarini bir-biri bilan o'zaro bog'langan holda badiiy asardagi voqelik tasvirini har tomonlama chuqur tadqiq etishni o'zida aks ettiruvchi lingvopoetika sohasi yuzaga keldi. Bugungi kundagi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri o'zbek lingvopoetikasining nazariy qismlarini ishlab chiqish, eng asosiysi esa ularni yaxlit bir qolipga solib chiqishdan iboratdir. Lingvopoetikaning har bir bosqichini birma-bir tahlil qilishga harakat qilamiz.

Poetik fonetikada badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar tadqiq etiladi. She'riyatda biror janr yoki uslub haqida fikr bildirganimizda aynan shu



uslublarni yaratishda ma'lum tovushlarni badiiy ohangga mos ravishda takrorlanishi biror she'riy janrning yaratilishiga sabab bo'ladi, uning ohangdor ravishda qaytarilishi insonga alohida bir his beradi. Misol tariqasida Boborahim Mashrabning quyidagi baytlarini keltirish mumkin:

Man nola qilay shom-u sahar eshigingda,
Jonimni beray, sho'xi parizod eshigingda.

Yoki:

Borurman ostoniga sahar ohista-ohista,
Surarman ko'zlarimga xoki dar ohista-ohista.

Poetik leksikologiyada asar tilida sinonim, omonim iboralar va paronim va chegaralangan leksika, o'z va o'zlashgan so'zlar qatlamining ishtiroki, ko'chim turlarining tasnifi va so'zdan unumli ravishda foydalanish kabilar tahlil etiladi. Yana Mashrab baytlariga murojaat qilamiz:

Borur miskin bu Mashrab gul yuzungni ko'rgali, ammo
Ko'rolmay orazing yig'lab turar ohista-ohista.

Yoki:

Ko'zdin chunon suv to'kg'il, iymoning bahra olsun,
Bog'-u chaman ko'karmas, yomg'ur quyulmaguncha.

Yuz yil tirik yurusang, oxir bir kun o'lursan,
Afsus ila ketursan to vosil o'lmaguncha.

Poetik morfemika morfologiya va so'z yasalishi bo'yicha tahlillarni ham o'z ichiga olgan nihoyatda keng yo'nalish hisoblanadi. Asar matnida o'ziga xos tarzda qo'llangan har bir qo'shimcha ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Masalan,

Tushti savdoi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg'a qoshima

baytida kelishik qo'shimchalarining tarixiy shakllarini uchratishimiz mumkin.

Poetik semantikada so'zda ifoda etilgan ma'nolarning va ularning turlarini ifoda etiladi. So'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi tadqiqida ham til boyligi, ham uslubning o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi vositalarga e'tibor beriladi.

La'ling g'amidin ko'nglum erur g'uncha kabi qon,
Gulbargi tarim, xoh inon, xoh inonma.

Kuysa muhabbat o'tig'a fisq-u fujur gunohlaring,
Xilvat etib kelur o'zi ko'ngulni xonaqosig'a.



Bahri rahmatga kirib qildim vujudimni adam,
Ma'rifatdin bexabarsan, daftarimni kavlama
kabi baytlarda Mashrab so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali fikrlar
ta'sirchanligining oshishiga erishgan.

Poetik sintaksishda matnning gap qurilishi tadqiq etiladi. Unda lingvopoetik tahlil formal sintaksis, mazmuniy sintaksis, kommunikativ sintaksis va matn sintaksisi bilan bog'liq holda olib boriladi. Poetik nutqni tahlil etish usuli she'riy va nasriy matn asosida amalga oshiriladi. Poetik sintaksis she'riy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga boyligi, she'riyatda turli nozik san'atlarning ishlatilishi bilan insonga o'zgacha zavq beradi, matnda gap bo'laklari tartibiga alohida e'tibor beriladi. Nasriy nutqda ham gaplar va gap bo'laklari tartibi, shakliy va mazmuniy mutanosiblik kabilar muhim ahamiyatga ega. Mashrabning mashhur matla'siga e'tibor qaratamiz:

Man nola qilay shom-u sahar dod eshigingda,
Jonimni beray, sho'xi parizod, eshigingda.

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, lingvopoetik tadqiq asoslari tilimizning boyligini ko'rsatish, filologiyaning yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Arastu.Poetika.- Toshkent: "Yangi asr avlodi",2011. 47-bet
- 2 Ma'rufjon Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- T, "O'zbekiston fanlar akademiyasi", 2007.
- 3.Mashrab.Devon-T: "Sharq" , 2019.
- 4.<http://marifat-ziyo.uz/news/uzbekistondauchinchi>